

O'ZBEK ROMANCHILIGINING YUZAGA KELISHI VA SHAKLLANISHI

Doniyorova Zebo Shamsiddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
203-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: N. Karimova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18682053>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek romanchiligining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi XX asr boshlariga to'g'ri kelib, bu jarayon jadidchilik harakati va milliy uyg'onish davri bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan O'tkan kunlar romani o'zbek romanchiligining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, Mehrobdan chayon asari ham milliy roman taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Keyingi davrlarda Oybek, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov kabi ijodkorlar tomonidan roman janri mazmunan va badiiy jihatdan boyitildi. Mustaqillik davrida esa roman janri yangi g'oyaviy-estetik qarashlar asosida rivojlanib, tarixiy, ijtimoiy va psixologik yo'nalishlarda kengayib bordi. Maqolada o'zbek romanchiligining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari hamda milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbek romanchiligi, roman janri, milliy uyg'onish, jadidchilik, tarixiy roman, badiiy tafakkur, Abdulla Qodiriy, Oybek, adabiy taraqqiyot, mustaqillik davri adabiyoti.

Annotation: This article analyzes the emergence and stages of formation of the Uzbek novel. The emergence of the novel genre in Uzbek literature dates back to the beginning of the 20th century, and this process is closely related to the Jadid movement and the era of national revival. In particular, the novel "Bygone Days" by Abdulla Qodiriy is recognized as the founder of the Uzbek novel. Also, the work "Mehrabdan Chayon" plays an important role in the development of the national novel.

In later periods, the novel genre was enriched in content and artistically by such creators as Oybek, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov. During the period of independence, the novel genre developed on the basis of new ideological and aesthetic views and expanded in historical, social and psychological directions. The article scientifically sheds light on the historical roots of the Uzbek novel, stages of development, and its place in the development of national literature.

Keywords: Uzbek novel, novel genre, national revival, Jadidism, historical novel, artistic thought, Abdulla Qodiriy, Oybek, literary development, literature of the independence period.

Аннотация: В данной статье анализируются возникновение и этапы формирования узбекского романа. Возникновение жанра романа в узбекской литературе восходит к началу XX века, и этот процесс тесно связан с движением Джадидов и эпохой национального возрождения. В частности, романом «Дни минувшие» Абдуллы Кодирия признается основоположник узбекского романа. Также важную роль в развитии национального романа играет произведение «Мехрабдан Чайон».

В более поздние периоды жанр романа обогатился в содержании и художественном плане такими авторами, как Ойбек, Абдулла Каххор, Пиримкул Кодиров. В период независимости жанр романа развивался на основе новых идеологических и эстетических взглядов и расширился в историко-социальных и

психологических направлениях. В статье научно освещаются исторические корни узбекского романа, этапы его развития и его место в развитии национальной литературы.

Ключевые слова: узбекский роман, жанр романа, национальное возрождение, джадидизм, исторический роман, художественная мысль, Абдулла Кодирий, Ойбек, литературное развитие, литература периода независимости.

Roman (fransuzcha: *roman*) – nasriy asar janri; muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanish va kamol topish jarayoni badiiy makon va zamonda tasvirlangan asar. Roman oʻrta asrlarda roman tillaritsa yozilgan har qanday asarni janrini, anglatgan. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan maʼlum maʼnoda mustaqil olam sifatida tahlil va talqin etiladi. Xuddi shu narsa roman janri mundarijasining uziga xosligini belgilab beradi. Muayyan shaxs takdirining oilaviymaishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy va tarixiy muhit bilan uzaro uzviy aloqada tasvirlanishi roman janrining koʻlami va gʻoyaviy-badiiy qiymatini namoyish etadi. Roman janri markazida bosh qahramon obrazi turadi. Bu bosh qahramon taqdiri uning jamiyatda tutgan mavqei bilan har doim ham mushtarak boʻlavermaydi. Aksincha, inson oʻz taqdiriga nisbatan katta yoki insoniy fazilatlariga koʻra kichik boʻlishi mumkin. Binobarin, u bilan uning taqdiri yoki jamiyatdagi mavqei oʻrtasida muayyan ziddiyat boʻladi va xuddi shu ziddiyat roman janrining mundarijasini – syujet chiziqlarini harakatlantirib turadi. Bosh qahramonning shaxs sifatidagi fazilatlar ana shu jarayonda, boshqa qahramonlar bilan munosabatida, kurashishida ochiladi. Bu munosabatlarning keskinligi va bosh qahramon uchun fojiali xotima bilan tugashi yoki ularning yengil va hajviy oqimda kechishi romanning epik janr sifatidagi uziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Har ikkala holatda ham bosh qahramon bilan jamiyat, muhit yoki urf-odat oʻrtasidagi ziddiyat va kurash oʻzida davrning ijtimoiy hamda maʼnaviy-axloqiy muammolarini qanchalik yorqin ifodalasa, romanning badiiy qimmatini va ijtimoiy ahamiyati shunchalik katta boʻladi. Roman oʻz tarixining dastlabki davrida mavjud adabiy janrlarga parodiya sifatida maydonga kelgan. Keyinchalik romannavislarning muayyan uslubiy tuzilma va tasviriy vositalar tizimini siyqallashtirishga qaratilgan urinishlari ham parodiya qilingan. Bu hol romanning avval boshdanoq muayyan adabiy shakllarni qonunlashtirishni xush koʻrmaydigan va yozuvchi qarshisida badiiy tasvirning barcha imkoniyatlarini ochadigan janr boʻlganidan dalolat beradi.

Oʻzbek romanchiligi XX asrning 20-yillarida, xususan, Abdulla Qodiriyning "Oʻtkan kunlar" (1925) romani bilan yuzaga kelgan. Milliy uygʻonish davri maʼrifatchilik gʻoyalari va jadid adabiyoti taʼsirida shakllangan bu janr, tarixiy realizm va milliy tafakkurni aks ettirib, milliy adabiyot taraqqiyotida inqilobiy burilish yasadi.¹

Oʻzbek romanchiligining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlari:

Tarixiy asoslar (XIX asr oxiri - XX asr boshi): Jadid adabiyoti namoyandalari maʼrifatchilik gʻoyalarini ilgari surib, badiiy adabiyotga ijtimoiy vazifa yukladilar.

Janrning tugʻilishi (1920-yillar): Abdulla Qodiriyning "Oʻtkan kunlar" (1925) va "Mehrobdan chayon" (1929) romanlari oʻzbek romanchiligining ilk namunalarini hisoblanadi.

Shakllanish xususiyatlari:

¹ Kojinov V. V., Proisxojudeniye romana, M., 1963;

Tarixiy realizm: O'tmishni tahlil qilish orqali milliy o'zlikni anglash.

Ma'rifatchilik g'oyalari: Jamiyatni uyg'otish, ta'lim va madaniyatni targ'ib qilish.

Badiiy uslub: Mumtoz adabiyot an'analarini yangi shakl bilan birlashtirish.

Abdulla Qodiriy o'zining tarixiy romanlari orqali milliy tafakkurni yuksaltirib, o'zbek adabiyotida yangi davrga asos soldi. O'zbek adabiyotida roman janriga mansub asarlar XX asrning boshlarida yozila boshladi. Adabiyotshunos M.Solihov o'z maqolasida roman janrining adabiyotimizga kirib kelishi haqida fikr bildirib shunday deydi: "Asriy adabiyotg'a yangidan kira boshlag'on xalqlar adabiyotning ro'mon qismimni tarjima bilan ochqonlar. Ya'ni qayu bir xalqning adabiyotida yaxshi ro'mon bo'lsa, uni tarjima bilan xalqni va yozuvchilarni u yo'lg'a o'rgata borg'onlar. So'ngra-so'ngra unday ro'monlarning taqlidini o'z hayotlariga uydirib chiqora borg'onlar"². Garchi bu qarash o'zbek adabiyotida o'rinli bo'lmasada (o'zbek adabiyotida ilk romanlar yaratilguniga qadar birorta tarjima roman bo'lmagan, tarjima sohasi asrning keyingi yillarida rivojlangan) rus adabiyotida Yevropa adabiyotidan tarjima va taqlidlar orqali roman janri kirib kelganligi va rus adabiyoti faqat taqlid bilangina cheklanib qolmay roman janrini yuksak darajada o'zlashtirib, bu janrda nodir asarlar yaratganligi haqiqatdir. O'zbek adiblari roman bilan asosan rus adabiyoti va u orqali yevropa adabiyoti bilan tanishishganlar. O'zbek adabiyotining birinchi romani hisoblanuvchi A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan oldin H.H.Niyoziyning 1915 yilda "Yangi saodat yoxud milliy ro'mon", Mirmuhsinning "Farzandsiz Ochildiboy" kabi asarlarini mualliflarning o'zlari roman deb nomlaydilar. Ammo bu asarlarni adabiyotshunoslar "janr talablariga javob bermaydi" deb o'sha davrlardayoq baho berganlar. Milliy uyg'onish davri tanqidchilaridan bo'lgan M. Solihov "Mehrobdan chayon" yolg'uz Julqunboyning ikkinchi asari emas, balki o'zbek yangi adabiyoti uchun ham ikkinchi ro'mon edi. Hamza Hakimzodaning "Milliy ro'mon" nomli kichik bir asari bo'lsada, unga bu kungi ro'monchilik sharoitida ro'mon demak to'g'ri bo'lmasdi" deya fikr bildirib shu maqolasida romanni yuzaga chiqaruvchi bir qancha shartlarni sanab o'tadi. Albatta bu shartlar bugungi kunga kelib o'z qiymatga ega emasdir. Yuqorida tilga olingan asarlarni keyingi davr olimlaridan bir guruhi "roman yaratish yo'lidagi urinishlar" deya baholaydilar.³

Shu tariqa jadidlar o'zbek romanchiligini boshlab berdilar. A. Qodiriyning

"O'tkan kunlar" romanidan so'ng "Mehrobdan chayon", tugallanmay qolgan "Obid ketmon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanlari shular jumlasidandir. Xo'sh bu romanlar qanday belgilarga ega edi? Jadid adiblari asrlar davomida shakllangan mumtoz adabiyot chuqur sug'orilgan edi va bu tafakkur romanlar o'z ifodasi ko'rsatdi. Xususan bu yaqinlik obrazlarning qurilishida ananaviy oshiq-mashuqa raqib (Otabek-Kumush-Homid, Anvar-Ra'no-Musulmonqul) uchligidan

foydalanilgan Obrazlar portiretini chizishda mumtoz ananalardan foydalanilgan

(Kumush Ra'no, Zebi) bu ayniqsa Kumush obrazini tasvirlashda yaqqol ko'zga tashlanadi ham, xastalanib qolganda ham bularning hech kumush har qanday

M.Solihov "Mehrobdan chayon": mavzui, sinfiy tusi va tuzilishi jihatidan

tekshirilmishdir. "O'zbekiston *adabiyoti va san'ati*". 2008-y. 16-17-sonlar

holatda go'zal yig'lab ham qovoqlari shishib ketganda biri uning ketganda ham,

² Н.Хатамов. Б.Саримсаков Адабиётшунослик теръинларининг русча-узбекча изоҳли лугати. Т.-«УКИТУВЧИ»-1978.-С257

³ Q.Yo'ldosh. Yoniq so'z. T."Yangi asr avlodi"-2006. -b192

xastalanib qolganda ham bularning hech biri uning go'zalligiga soya sololmaydi. Romanlarda ijobiy qahramonlar to'raligicha ijobiy (Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor Qurbonoy, Zebi) salbiy qahramonlar to'raligicha salbiy (Homid, qora kampir, Abdurahmon, Shahodat muftiy) jonlantiriladi. Qahramonlar xarakteri, ruhiyatida evrilishlar uchramaydi, bu xususiyatni oldingi mumtoz adabiyot namunalarida deyarli, keyingi sho'ro davri romanlarida juda kam kuzatamiz ammo asar qahramonlarida ham insonlardek ruhiyatlarida o'zgarishlar bo'lishi, ular nimadandir taasirlanishi va o'zgarishi mumkinligi, inson har doim yevrilishda bo'lishini ilk bor Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida uchramiz.

Adabiyotshunos D.Quronov bu asar haqida "Romanchiligimizning ilk cho'qqisi –

"O'tkan kunlar"dan farq qilaroq, "Kecha"da voqealar silsilasi emas, inson xarakteri, uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlar markaziy o'rin tutadi. Cho'lponning romanchiligimiz taraqqiyotiga qo'shgan eng muhim yangiliklaridan biri ham shundadir." Bu romanlarda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy muammolar ularning kelib chiqish sabablari, yechimlari, ko'rsatilgan edi.⁴

Birinchi o'zbek romani

O'zbek adabiyotida birinchi roman — **O'tkan kunlar** hisoblanadi. Muallifi — **Abdulla Qodiriy**.

Roman 1926-yilda nashr etilgan. Asarda XIX asr oxiridagi Turkiston hayoti, muhabbat, ijtimoiy ziddiyatlar, eski urf-odatlar tanqidiy ruhda tasvirlangan. Otabek va Kumush obrazlari orqali yozuvchi millat taqdirini ko'rsatadi.

Bu asar o'zbek romanchiligiga asos soldi.

3. Romanchilikning rivojlanish bosqichi

a) 1920–1930-yillar

Bu davrda roman janri rivojlandi. Abdulla Qodiriyning ikkinchi romani — **Mehrobdan chayon** ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, **Cho'lpon** tomonidan yozilgan **Kecha va kunduz** romani ham o'zbek romanchiligida muhim o'rin tutadi. Bu asarda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mustamlakachilik davri muammolari tasvirlangan.

b) 1950–1980-yillar

Bu davr o'zbek romanchiligining keng rivojlangan bosqichi hisoblanadi.

Mashhur adiblar:

Oybek – Navoiy

Abdulla Qahhor

Pirimqul Qodirov

Odil Yoqubov

Bu davr romanlarida tarixiy mavzu, urush yillari, mehnat, inson ruhiyati keng yoritildi.

c) Mustaqillik davri romanchiligi

1991-yildan keyin o'zbek romanchiligi yangi bosqichga ko'tarildi. Erkin fikr, milliy qadriyatlar, tarixiy haqiqatni qayta baholash kuchaydi.

Bu davrda:

Tarixiy romanlar ko'paydi

⁴ Д.Курунов Чулпон насри поэтики. –Т.-«ШАПК»-2004. Б157

Milliy o'zlik masalasi yoritildi

Ruhiy-psixologik tahlil kuchaydi

4. O'zbek romanchiligining ahamiyati

O'zbek romanchiligi: Milliy ongini shakllantirdi, jamiyat muammolarini yoritdi, adabiyotimizni jahon adabiyoti darajasiga olib chiqdi, tarix va inson ruhiyatini chuqur tasvirlash imkonini berdi. O'zbek romanchiligi XX asr boshlarida shakllanib, jadid adiblari tomonidan asos solingan. Abdulla Qodiriy bilan boshlangan bu jarayon keyingi avlod yozuvchilari tomonidan rivojlantirildi. Bugungi kunda o'zbek romanchiligi mazmun va shakl jihatidan boy, mustaqil adabiy jarayonga aylangan.⁵

O'zbek romanlarida "romaniy muammo"ni, romanga xos tafakkurni saqlab qolgan holda hajman qisqarishlar ro'y berdi. U.Hamdamning "Namatak" mini romani, . O. Muxtorning "Maydon" roman hangomasi shular jumlasidandir. Adibning "To'rt tomon qibla" trilogiyasi to'rt yuz ellik bet ham chiqmaydi. Bundan tashqari Sh. Xolmirzayevning "Olabo'ji", "Dinozavr", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", M.M.Do'stning "Lolazor", X.Do'stmuhammadning "Bozor", U.Hamdamning "Muvozanat", "Sabo va Samandar", E. A'zamning "Shovqin", A. A'zmning "Ro'yo yoxud Gulistonga safar", L. Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", A. Nurmonovning "Qon hidi", Javlon Jovliyevning "Qo'rqma", A. Malikning "Halqa" kabi romanlarida yozuvchilar qahramonlar hatti harakatini ko'rsatib berishga emas, ularning hislarini, kechinmalarini tasvirlashga, obrazlar inson qiyin vaziyatga tushganda yo'l korsatadigan namuna emas, yetuklik va kamchiliklarga ega, ezgulik va yovuzlik bitta vujudda jamlangan bo'lgan tirik odam sifatida tasvirladilar.⁶

Xulosa: O'zbek romanchiligi xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va jadidchilik harakati zaminida shakllandi. XX asr boshlarida milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik va yangicha tafakkur adabiyotda yangi janr — roman janrining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonda Abdulla Qodiriy ijodi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning O'tkan kunlar romani o'zbek adabiyotida realistik romanchilik maktabini boshlab berdi. Shuningdek, Cho'lponning Kecha va kunduz asari jamiyat va inson ruhiyati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib berdi. Keyingi bosqichda Oybek, Pirimqul Qodirov kabi adiblar tarixiy va zamonaviy mavzularni chuqur badiiy tahlil qilish orqali romanchilikni yangi bosqichga olib chiqdilar. Shu tariqa, o'zbek romanchiligi milliy adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin egallab, xalqning tarixiy taqdiri, ma'naviy dunyosi va ijtimoiy hayotini keng epik tasvir orqali ifodalash imkonini yaratdi. U bugungi kunda ham mazmun va shakl jihatidan boyib, zamon bilan hamnafas rivojlanmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Kojinov V. V., Proisxojdaniye romana, M., 1963;
2. Н.Хатамов. Б.Саримсаков Адабиётшунослик теръинларининг русча-узбекча изохли лугати. Т.-«УКИТУВЧИ»-1978.-С257
3. Q.Yo'ldosh. Yoniq so'z. T."Yangi asr avlodi"-2006. -b192
4. Д.Куроноу Чулпон насри поетикаси. -Т.-«ШАРК»-2004. Б157
5. **Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar.** – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at

⁵ **Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar.** – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

⁶ O'zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti.

nashriyoti.

6. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti.

